



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **IOGANN GERDERNING “TINCHLIK QIZI” LOYIHASI VA TINCHLIK QONUNIYATLARI TAHLILI**

**Sharipov Dilshod Baxshilloevich**

Buxoro davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu kichik tadqiqot ishida buyuk nemis faylasufi I.Kantning izdoshlaridan biri Iogann Gotfrid Gerderning tarixning falsafiy asoslanishi va antropologik jihatlariga urg‘u berilgan “Insonparvarlikni qo‘llab-quvvatlash uchun xat” nomli tinchlik loyihasining to‘liq ijtimoiy-falsafiy, siyosiy tahlili keltirilgan. Maqolada I.Gerderning Amerika hududlarida istiqomat qilgan tub mahalliy aholi bo‘lgan Irokezlarning Delavarlarning shafqatsiz muomalasiga nisbatan ajdodlari qo‘llagan usulni “Irokezlar tajribasi” tarzida keltirgani va delavarlarni “Tinchlik qizi” deb e‘lon qilinishi va shu yo‘l-yo‘rig‘ bilan ularni butunlay qurolsizlantirganligi tarixiy hodisa sifatida tasvirlangan. Irokezlar ham, Delavarlar ham Amerikaning tarixdagi tub hindu qabilalari hioblanadi. Shu bilan birga, ushbu ishimizda I.Gerderning o‘z “Tinchlik qizi” loyihasi taqdim etilgan bo‘lib, uning falsafiy mohiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Hindular, dengiz, qabila, aholi, qurol, urush, tinchlik, tinchlik qizi, zaytun moyi, shifobaxsh vositalar, taqdir marjoni, tinchlik holati.

## **АНАЛИЗ ПРОЕКТА ИОГАННА ГЕРДЕРА «ДЕВА МИРА» И ЗАКОНОВ МИРА**

**Шарипов Дилшод Бахшиллович**

Бухарский государственный педагогический институт, старший преподаватель

### **Аннотация**

Данная небольшая исследовательская работа представляет собой полный социально-философский и политический анализ мирного проекта «Письмо в поддержку человечества» Иоганна Готфрида Гердера, одного из последователей великого немецкого философа И. Канта, с акцентом на философские основы и антропологические аспекты истории. В статье описывается исторический труд И. Гердера о жестоком обращении ирокезов с делаварами, коренным населением американских территорий, названный «опытом ирокезов». Он также описывает объявление делаваров «Дева мира» и их полное разоружение в результате этого решения. Ирокезы и Делаваэра считаются исконными индейскими племенами Америки в истории. В то же время в этой работе представлен собственный проект И. Гердер «Дева мира» и раскрыта его философская сущность.

**Ключевые слова:** индейцы, море, племя, население, оружие, война, мир, дочь мира, оливковое масло, целебные средства, ожерелье судьбы, состояние мира.

## **ANALYSIS OF JOHANN GERDER'S DAUGHTER OF PEACE PROJECT AND LAWS OF PEACE**

**Sharipov Dilshod Bakhshilloevich**

Bukhara State Pedagogical Institute, Senior Lecturer

### **Abstract**

This small research paper presents a complete socio-philosophical, political analysis of the peace project "Letter in Support of Humanity" by Johann Gottfried Herder, one of the followers of the great German Philosopher I. Kant, with an emphasis on the philosophical foundation and

anthropological aspects of history. The article describes I. Herder's historical account of the brutal treatment of the Delaware by the Iroquois, the indigenous people who inhabited the American territories, as the "Iroquois Experience." He also describes the Delaware being declared the "Daughters of Peace" and their complete disarmament as a result of this instruction. Both the Iroquois and the Delaware are considered to be the original Indian tribes of America in history. At the same time, in this work, I. Herder's own project "The Daughter of Peace" is presented and its philosophical essence is revealed.

**Keywords:** Indians, sea, tribe, population, weapons, war, peace, daughter of peace, olive oil, healing agents, necklace of destiny, state of peace.

Iogann Gotfrid Gerder (1744–1803) I. Kantning izdoshlaridan bo‘lib, tarixning falsafiy asoslanishi va antropologik jihatlariga, xuddi V. Gegel kabi, keng e‘tibor qaratgan. Uning falsafasida “Uyg‘onish davri” tarixiylikni inkor etish g‘oyasi ustunlik qilgan, vaholanki, aynan “Renessans davri” deb atalgan shu davrgina zamon va makonning, jamiyat rivojlanishining tarixiylik qonuniyatini kashf etgan edi. Shu sababli ham ayrim olimlar I. Gerderni “post-insoniylik”, “post-haqiqat”, “neoglobalizm”, “ekoaktivizm otaxoni”[1] deb hisoblashadi.

Ilmiy jamoatchilikda faqat XVII asrdan boshlab “cultura” atamasi ishlatila boshlangan bo‘lsa, XVIII asrda turli davrlar va xalqlarning madaniyatini dastlab o‘rganishni aynan I. Gerder boshlab bergan[2]. Ayni paytda I. Gerder tomonidan ilk marta insoniyat madaniyati har xil tur va shakllardan iborat bo‘lishi, madaniyat esa insoniyat ma‘naviy olamining tadrijiy rivojlanishidan iborat ekanligi isbotlab chiqildi[3]. Shuningdek, I. Gerder 1793–1797-yillarda[4] nashr qilingan “Insonparvarlikni qo‘llab-quvvatlash uchun xatlar” nomli tinchlik loyihasini taqdim etdi. Unda o‘sha davrlarda Shimoliy Amerikaning tub aholisi hisoblangan delaverlar va irokezlar hayotida mavjud bo‘lgan o‘zaro qirg‘inbarotga butunlay chek qo‘yish, yashab qolish va hayotni saqlab qolish haqidagi o‘zaro insonparvarlik va hayotiy tinchlik kelishuvini butun insoniyatga misol tariqasida keltirib, o‘zining mustaqil tinchlik loyihasini taqdim etadi va uni “abadiy tinchlikning irokezlar tajribasi” deb ataydi[5]. I. Gerder Yevropa uchun o‘z davrining “eng baxtsiz urush kunlari” sifatida Napoleon olib borgan urushlarni nazarda tutib, “qisqa muddatli tinchlik ham mumkin bo‘lmagan paytda abadiy tinchlik rejalari haqida” ko‘p gapirilganini yozadi. Shu munosabat bilan ko‘pchilik siyosatchilar va faylasuflar “tinchlik loyihalari”ni taqdim etishi urf bo‘lgan bir paytda, Gerder o‘z loyihasini “maqsadga yetish haqida amaliy (haqiqiy) urinish”[6:250] deb baholaydi va shu bilan asarning yuksak qiymatini ko‘rsatib o‘tadi.

Demak, masala mohiyati shunday: qachonlardir delaverlar Filadelfiya hududlari va uzoqroq dengiz tomonlarda istiqomat qilgan bo‘lib, irokezlarga nisbatan shafqatsiz va uzoq davom etuvchi urushlarni amalga oshirishadi. Irokezlarning butunlay qirilib ketish xavfi yuzaga keladi. Shunda irokezlar delaverlarga “yovuzlikni yo‘q qilish vositasi” sifatida xat bilan elchilarni yuborishadi. Qadimgi hindularning odatiga ko‘ra, bitta qabila “Tinchlik qizi” deb nomlangan va u daxlsiz hisoblangan. Bu “Tinchlik qizi” bo‘lgan elat boshqa qabilalarning qoq markazida joylashgan, boshqa jangovor qabilalar o‘zlarini “erkaklar” deb atashgan va “Tinchlik qizi” atrofida istiqomat qilishgan. Shuningdek, hech kim “qiz”ga tegmasligi, ayniqsa, unga yomonlik qilmasligi kerak bo‘lgan. Agarkim, kimdir yovuzlik qilsa, unda darhol barcha qabilalar unga quyidagi so‘zlar bilan murojaat qilishi kerak edi: “Sen nega ayolni xafa qilyapsan?” Barcha erkaklar qizni urganga tashlanishi kerak bo‘lgan. Chunki “qiz”ning o‘zi urush boshlash huquqiga ega emas, aksincha, u har qanday holatda tinchlikni saqlashga harakat qilishi kerak. Agar uning atrofidagi erkaklar bir-birini ura boshlasa va urush halokatli bo‘lsa, “Tinchlik qizi” o‘zida kuch topa bilishi kerak: “Erkaklar, nima qilyapsizlar? O‘z xotin va bolalaringiz haqida o‘ylang, agarkim to‘xtamasangiz, ular halok bo‘ladi. Nahotki, siz bir-biringizni qirg‘in qilsangiz?” Va erkaklar “Tinchlik qizi” ovoziga quloq solishlari hamda unga itoat etishlari kerak edi[7:250–251].

Xullas, irokezlarning ajoyib bir hiylasi ish berib, delaverlar “Tinchlik qizi” bo‘lishga rozi bo‘ladilar va shu yo‘l bilan qadimgi hindularning eng jangovar qabilasi hech bir qiyinchiliksiz

qurolsizlantiriladi. Irokezlar ushbu munosabat bilan katta bayram uyushtirib, unga delaverlarni taklif qilib, ularning vakillariga Irokezlarning abadiy tinchlik rejasini uch punktda taqdim qilishgan.

Birinchi, ular delaverlar xalqini “Tinchlik qizi” deb e’lon qiladilar va: “Biz sizlarga uzun yubka kiydiramiz, oyog’ingiz uchigacha va sizni ziraklar bilan bezaymiz”, deb bayonot berishadi. Shu bilan ular delaverlarga shu kundan boshlab boshqa qurol bilan ish ko’rmasliklari kerakligi haqida tushuncha beradilar.

Ikkinchi punkt shunday yangraydi: “Biz sizga zaytun moyi va shifobaxsh vositalardan iborat idish taqdim qilamiz. Boshqa xalqlarning ko’zlarini shu narsa bilan yuving, toki ular yaxshilikni ko’rsinlar va yovuzlikni ko’rmasinlar. Ushbu vositalarni shuning uchun ishlatinki, toki yo’ldan adashgan xalqlar haqiqat yo’liga qaytsinlar va ularning qalbini tinchlikka moyil qilsin”[8:251].

Uchinchi punkt delaverlarni dehqonchilik qilishga chaqirgan bo’lib, quyidagicha fikr bildirilgan edi: “Biz sizning qo’lingizga dengiz orti boshog’i va ketmon beramiz”. Har bir punkt taqdir marjoni (tasbehga o’xshagan narsa) bilan tasdiqlangan. Ushbu marjon astoydil saqlangan va vaqti-vaqti bilan hindular uning ahamiyatini eslashgan.

Shundan so’ng ushbu noodatiy tinchlik kelishuvidan keyin irokezlar delaverlarni o’zlarining jiyanlari (urug’doshlari – D.B. Sharipov) deb atashdi, boshqa yana uchta delaver urug’i esa bir-birlarini o’yin bo’yicha hamkorlar deb ataydilar. Bu kabi muomala faqat maslahatlashuv paytlarida va boshqa tantanali vaziyatlarda qo’llanilgan. O’sha vaqtdan beri delaverlar xalqi tinchlik saqlovchisi bo’ldi, unga tinchlikning buyuk marjonini saqlash buyurilgan, do’stlik zanjiri ishonib topshirilgan edi. U uni butun va saqlangan holda qo’riqlashi kerak edi. Hindularning ijtimoiy tafakkuri va tasavvuri bo’yicha, ushbu zanjir ularning yelkasiga tushgan: bir tomoni boshqa hindu xalqlari qo’lida bo’lsa, boshqa tomoni yevropaliklar qo’lidir, deb hisoblangan. Irokezlar tarixi shundaydir[10:251].

**ASOSIY QISM.** Nemis faylasufi I. Gerder fikricha, qachonlardir Yevropada shunday vaqtlar bo’lganki, unda ma’naviyat Yevropa bo’ylab “Tinchlik qizi” roliga da’vogarlik qilgan. Unda ham uzun kiyim-bosh, qo’llarida esa shifobaxsh vositalar bo’lgan. Lekin ma’naviyatni shunga ayblashadiki, u tinchlikni qo’llab-quvvatlash o’rniga urushlarni qo’zg’atgan. Nima bo’lgan taqdirda ham uning shifobaxsh vositalari xalqlarning ko’zini ochmadi, bemorlarga yordam bermadi[11:251], deydi.

I. Gerderning yozishicha, bir paytlar u insoniyat tarixiga oid bir chuqur mazmunli qo’lyozmani o’qishga muayassar bo’lgan, unda mohiyatan inson tarixi asoslari mujassam edi va quyidagicha ta’riflab berilgandi:

1. odamlar boshqalarga joy bo’shatib berishlari uchun o’ladilar;
2. odamlarning tug’ilishidan ko’ra o’lishi kam bo’lsa, tabiat joyni kuch vositalari bilan tozalaydi;
3. ushbu vositalarga nafaqat o’lat, hosilsizlik, yer qimirlashi (zilzila), geologik ofatlar, balki xalq inqiloblari, cho’llashish, urushlar ham kiradi;
4. hayvonlarning bir turi boshqasining sonini kamaytirgani kabi, aholining ko’payib ketish imkoniyatini mustasno qilgan holda, insoniyat ham xuddi shunday o’zini ma’lum muvozanatda saqlab turadi;
5. shunday ekan, uning ichida ham yaratuvchan, ham vayronkor asoslar amal qiladi[12:253].

I. Gerder bu tarix asarini o’qib bo’lgach: “Bu dahshatli nuqtayi nazardir”, deydi, axir, “o’z avlodning oldida o’zimizda qo’rquv va titroq hosil qiladi, etxo’rmi u yoki o’txo’r maxluqmi, o’zida u yaratuvchi kuchni olib yuribdimi yoki vayronkor?” deb jiddiy savol qo’yadi. “Tabiat bizni o’z avlodimizning vayronkor qismidan xavfsiz qilishga imkon beruvchi vositalardan mahrum qilgan emas, lekin bu vositalarni u bizning qo’llarimizga qurol sifatida emas, bizning bosh va yuraklarimizga taqdim etgan”[13:253], deb tinchlikka oid g’oyalar va loyihalarga ishora qiladi.

I. Gerder yozadi: “Biz ma’naviyatning o’rniga Yevropaning qoq markazida qaysidir

xalqni ayollar kiyimini kiydirishimiz va unga tinchlik taqdirini yuklashimiz shartmi? Unda u qaysi xalq bo‘lishi kerak?”[14:251]

Shuningdek, I. Gerder Yevropaning o‘zida va boshqa qit‘alarda olib borgan va davom etayotgan barcha urushlarini tanqid qiladi. Agarki Yevropada hindular o‘ziga saylagan kabi qaysidir bir xalqni “Tinchlik qizi” deb e‘lon qilsa, “u vayron qiluvchi urushlar ko‘p hollarda Gudzon ko‘rfazidagi mo‘ynalar uchun, urush tashkilotchilarining o‘zi ham g‘ira-shira tasavvurga ega bo‘lgan Paragvaydagi yerning bir bo‘lagi uchun, Tinch okeanidagi bandargoh uchun, hukmdorlar injiqliklari uchun olib borilgan bo‘lsa”, qanday qilib tinchlikni saqlay oladi[15:252], deb savol qo‘yadi. “Qanday qilib odatda urushlar monarxning xarxashasi yoki ministrning past qatqusidan kelib chiqadi!?” deb ajablanadi.

I. Gerder Yevropa urushlarining haqiqiy kelib chiqish ildizlarini, Salb yurishlaridan boshlab, to o‘z zamonasigacha bo‘lganlarini aynan monarxlar va ularning fitnakor vazirlari sababchidir, deydi: “Dunyoda urushlar ministrlar kabineti qa‘rida tayyorlansa va boshlab yuborilsa, “Tinchlik qizi”ning barcha sa‘y-harakatlari besamar ketadi”[16:252]. Bu esa Yevropa ziyolilari orasida mashhur bo‘lgan “Gudibras” holatidan-da ko‘ra eng yomon ishdir, deb hisoblagan.

I. Gerderning o‘ylashicha, “afsuski, bu vosita yovvoyilarga ham ko‘p xizmat qilgani yo‘q. Yevropaliklar suqulib kirgan payt “Tinchlik qizi”ning erkaklari talabiga ko‘ra, “Tinchlik qizi”ning o‘zi ham mudofaada ishtirok etdi. Hindularning aytishicha, boshlanishida “Tinchlik qizi”ning faqat yubkasi qisqartirilgan, lekin keyinroq undan butunlay voz kechishgan va qo‘llariga tomagavk olishga majbur bo‘lishgan”. I. Gerder “yot, kutilmagan zo‘ravonlik yovvoyilarning ajoyib tinchlik loyihasini barbod qildi” deganida yevropaliklarning suqulib kirishini izohlaydi va bunday holat har doim bo‘ladi, qachonki tinchlik daraxti mustahkam va nihoyatda chuqur ildiz otmasa, deb ta‘kidlaydi.

I. Gerder abadiy yoki vaqtinchalik tinchlikka erishish, jangovor xalqlarni to‘xtatish va ularning yo‘lini yopish uchun “boshqa xil vositalar” odamlar tomonidan qo‘llanilganini ilhomlanib yozadi. Tog‘larda devorlar qurilgani, chegaraoldi hududlar saholarga aylantirilgani, Osiyoda muqaddas imperiya mo‘g‘ullarning bosqiniga chek qo‘yishi kerak bo‘lgani, Afrikada yodgorliklar va ibodatxonalar erkin savdo olib borish joyi bo‘lgani, qadimgi Yunonistonda orakullar, panionlar, Axeylar ittifoqi tinchlikka xizmat qilganini ta‘kidlaydi. Ushbu o‘rinda I. Gerderning “agarki abadiy tinchlikka bo‘lmasa hamki, unda har qalay uzoq muddatli tinchlikka xizmat qilgan” Markaziy Afrikadagi qonuniy xo‘jalik yuritish instituti hisoblangan yodgorliklar va ibodatxonalar erkin savdo olib borganini alohida ta‘kidlashi muhimdir: “agarki xalqlar bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lmasa (ya‘ni uchrashishmasa – D.B. Sharipov), ular tinch-ahillikda yashaydi”. Chunki afrikaliklarning odatiga ko‘ra, belgilangan muqaddas joyga bir qabila o‘z mahsulotlarini qoldirib, o‘zi ketadi, boshqasi ham xuddi shunday qiladi va shunday qilib ayirboshlash amalga oshadi. “Agarki, ular bir-birlarini ko‘rganida edi, aldov va so‘kin so‘zlari bo‘lishi shubhasiz edi”[6:252], deb yozadi I. Gerder.

Shu bilan birga, I. Gerder o‘zining mustaqil “Tinchlik qizi” loyihasini taqdim etgan bo‘lib, uning mohiyatini “umuminsoniy adolat, insoniylik, faol aql”[6:253] g‘oyalari tashkil etadi. I. Gerderning ta‘kidlashicha, “uning shifobaxsh vositalari darhol ta‘sir qilmaydi, lekin xatolari yo‘qdir”[6:253]. I. Gerderning “Tinchlik qizi” loyihasi umuminsoniy aql va adolat tamoyillariga qurilgan: “Umumiy insoniy aql (umuminsoniy aql – D.B. Sharipov) va adolat – mana matrona zaytun moyi va shifobaxsh vositalarni va novdani, hosili bilan, nafaqat ramzlar sifatida, balki tinchlantiruvchi vositalar sifatida ham olib boruvchi – u abadiy tinchlikka olib kelmasa hamki, unda, har qalay, urushlarning asta-sekin qisqarishiga olib keladi”[6:253].

I. Gerder “hurmatli abbat Sen-Pyer yo‘liga kirib, uning misolida uyatli yolg‘on ko‘rsatmasiz buyuk Tinchlik qizi (pax sempiterna)ning vazifalarini aniq” ko‘rsatib o‘tadi. Faylasuf o‘z loyihasining nomi va tabiatiga muvofiq, ulardagi qonuniyatlarni “tinchlikka oid qat‘iy ishonch” deb ataydi va ularning sonini yetti punktda sharhlaydi.

Birinchi qat'iy ishonch, ya'ni uning ilk tinchlik qonuniyati, urushga nafrat ko'zi bilan qarashdir. I. Gerder "urush, agar u majburiy o'z-o'zini himoya qilish bo'lmasa, balki tinch qo'shni xalqqa vijdonsiz bosqin bo'lsa, unda bu hayvoniy, eng noinsoniy boshlanishdirki, qaysiki bu nafaqat shu xalqqa, ayni paytda urushni keltirib chiqargan xalqqa ham teng ravishda qirg'in va vayron qilinish bilan tahdid qiladi"[6:253–254], deb ta'kidlaydi. "Eng oliy mavjudot uchun hech qanday sabablarsiz bir-birini yo'q qiluvchi ikki armiyadan ham ko'ra qabihroq nima bo'lishi mumkin?" deydi. I. Gerderning taassuf bildirishicha, "urushning o'zidan ham ko'ra, uning yo'ldoshlari yanada dahshatlidir: kasalliklar, lazaretlar, ocharchilik, o'lat, talonchilik, zo'ravonlik, davlatning vayron bo'lishi, oilaning qulashi, ko'pgina avlodlarda axloqning yovvoyilashishi"[6:254]. Bu o'rinda faylasufning mantig'i o'z davri uchun isbot talab qilmaydigan haqiqatdir: "Barcha oliyhimmat odamlar quyidagi qat'iy ishonchni hamma joyga yoyishlari shartdir: otalar va onalar bolalariga urush davri ko'rguliklari haqida shunday gapirib berishlari kerakki, bu dahshatli so'z "urush" shunchalar yengil aytiladiki, odamlar nafaqat uni yomon ko'rishlari kerak edi, ayni damda uni aytishga ham hafsala qilolmaslik yoki yozishda va talaffuzda xuddi shunday titroq bilan uni aqlsizlik, o'lat, ochlik, yer qimirlashi (zilzila), chechak singari xavf deb so'zlashlari lozim"[6:254].

I. Gerderning ikkinchi qat'iy ishonchi, ya'ni tinchlik qonuniyati "harbiy shon-sharafga kamroq hurmat" degan tezisni tashkil etadi. Faylasuf bosqinchilik urushlarida ko'rsatilgan qahramonlik ruhini insoniyat tanasidagi qonxo'r katta ko'rshapalakka o'xshatadi va buni qadimgi yunonlar, rimliklar, varvarlardan kelib chiqqan deb hisoblab, "o'sha shon-sharaf (iftixor) va hurmatga arzimaydi"[6:254], deb yozadi. I. Gerder buyuk qahramonlarda "qahramonlik ruhining mavjudligi" va "bashorat qilish" qobiliyatlarini bo'lishidan qat'i nazar, "har doim jang oldidan va jangdan so'ng u o'zi xizmat qiladigan ish uchun ko'z yoshi to'kib yig'laydi"[6:254], deydi. Chunki bu jangovorlik qobiliyatining yuksalishi qon to'kishga qurilgan. Faylasuf shu o'rinda monarxga shunday murojaat qiladi: "xalqning otasi ulug'vor iste'dod egasi bo'lishi kerak, buyuk qahramonlarning qobiliyatlarini uzluksiz yuksaltirishi zarurki, unga qat'iy iroda kerak, chunki (monarx ham) o'zining muvaffaqiyatlariga bir kunda kelmagan va ularni g'irt tasodif yoki ko'r-ko'rona omadga bog'lash kerak emas"[6:254].

I. Gerder yozadi: "Barcha aqlli kishilarning birlashgan sa'y-harakatlari bilan Mariya, Sulla, Atilla, Chingisxon, Temurlang ismlari atrofidagi yolg'on yorug'lik gardishini tarqatmoq kerakki, nihoyat, har qanday o'qimishli aql yuqoridagi yetakchilar haqidagi qo'shiqlar shunchalar qahramononaki, xuddi qaroqchi Lips Tullian haqidagi qo'shiqlar singaridir"[6:254]. Bu yerda I. Gerder insoniyat tarixidagi har bir xalq tarixida bo'lgan u yoki bu tarixiy shaxs yoki siyosiy yetakchi haqida aytilgan, tarixchilar va olimlar tomonidan yozilgan turli madhiya asarlardagi maddohlikni "yolg'on yorug'lik gardishi" deb ta'riflayaptiki, bu qaroqchilardan bo'lgan Lips Tullian haqida xalqi o'ylab topgan qo'shig'iga qiyoslangan. Bu bilan tarixiy shaxslarning asl va mardonavor qahramonligi, albatta, qaroqchilardan ko'ra ustunroq bo'lishi kerakligiga ishora bor, deb o'ylaymiz.

I. Gerderning uchinchi qat'iy ishonchi, ya'ni tinchlik qonuniyati "yolg'on davlat san'atidan jirkanish"[6:254] deb nomlanadi va faylasuf ushbu "yolg'on davlat san'ati"ni yanada qat'iyroq fosh qilish kerakligini uqtiradiki, sababi u hukmdor shon-sharafini va fuqaro baxtini chegaralar kengayishida, begonalar hududlarini egallashda, daromadlarni oshirishda, ayyorona qutqularda, yakka hokimiyatchilikka asoslangan zo'ravonlik, ayyorlik va aldovda ko'radi[6:255–256].

I. Gerder tarixiy shaxslardan Mazarini, Luvua, Dyuterr va ularga o'xshaganlarni har bir halol kishi aniq bilishini va "davlat san'ati tomonidan qo'llaniladigan har qanday yolg'on, mohiyatiga ko'ra, o'zni aldashdir"[6:255], deb e'tiroz bildiradi. Faylasufning ishonchi qat'iyki, "norozilikning umumjahon ovozi davlat mansab pillapoyasidan va orden-medallaridan, xira maynabozchilik va shuhratparastlikdan, xurofotning ona suti bilan singigani ustidan g'alaba qozonadi", deb ta'kidlaydi. I. Gerder o'ylashicha, masala mohiyati shundan iborat bo'lishi

kerakki, davlatdan kelib chiquvchi barcha munosib narsalarni “qanchalik insonda insoniylikni tarbiyalashga hissa qo‘shganiga qodirligiga” qarab shu darajada baholashadi va hurmat qilishadi[6:255], deb hisoblaydi.

I. Gerderning to‘rtinchi qat’iy ishonchi, ya’ni tinchlik qonuniyati “tozalangan vatanparvarlik”[6:255] deb ataladi. Uningcha, vatanparvarlikni yanada qat’iy tarzda tozalamoq va ma’naviy jihatdan yaxshilamoq kerak[6:255]. Olimning fikricha, har bir xalq tushunib yetsinki, boshqa xalqlarning ko‘z o‘ngida yoki avlodlar so‘zlarida emas, balki u o‘z-o‘zidan, tabiiy rivojlanish yo‘li bilan, shu xalq buyuk, go‘zal, oliyanob, boy, obod, faoliyatli va baxtli bo‘lishi kerakki, shundagina unga umuminsoniy hurmat soya kabi ergashadi[6:255]. I. Gerder, “ushbu tushunish bilan nafratlanish va hazar qilish hissini birlashtirish kerakki, kimki o‘z yurtini besabab tark etsa, kimki tashqi ishlarga aralashsa, (chet elliklar ishiga) ishtirok etsa va ma’nosiz tarzda ularga taqlid qilsa, shu bilan birga o‘z xalqining ishiga ziyon yetkazsa, o‘zining majburiyatlariga zarar keltirsa, o‘z xalqining osudaligi va farovonligiga ziyon keltirsa, bundaylarga nisbatan nafratlanish va hazar qilish hissini birlashtirish kerak, ya’ni kuchli hissiyotni ko‘rsatish kerak”[6:255], deb hisoblaydi. Shuningdek, I. Gerder yozadi: “Kimki chet elda bo‘layotgan hodisalar sababli, qaysiki ularni bilmaydi va tushunmaydi, unda hech narsani o‘zgartira olmaydi va ularga umuman aloqasi bo‘lmagan ishlar uchun bahslashadigan, janjal qiladigan, yomonlaydigan, yomon ko‘radigan va bir-birini shular uchun ta’qib qiladiganlarni masxara qilmoq va nafratlanish hissi bilan ularni o‘ramoq kerak. Ularni qurollangan o‘g‘ri va qotil singari ko‘rish kerak, chunki ular o‘zining aqlsiz nojo‘ya ishlari bilan begona ishlari deb, o‘z vatandoshlarining xotirjamligini buzadi”[6:255]. I. Gerder kuzatishlari bo‘yicha, inson kimdir bo‘lishi uchun o‘zi istiqomat qiladigan joydagina kimdir bo‘lishi, o‘z o‘rnini topishi mumkin, boshqa yerda emas: “Tushunish vaqti yetdi: kimdir bo‘lish uchun, sen qayerda turgan bo‘lsang, o‘sha yerda kimdir bo‘lishing mumkin, o‘sha yerda kimdir bo‘lishing kerak”[6:255].

I. Gerderning beshinchi qat’iy ishonchi, ya’ni tinchlik qonuniyati “Boshqa xalqlarga nisbatan adolat tuyg‘usi”[6:256] deb nomlangan. Olim aslo boshqa xalqqa nisbatan haqorat so‘zi ishlatilmasligi yoki ularning axloqi va odatlarini kamsituvchi bo‘lmasligi kerak, aksincha, xalqlarda birdamlik tuyg‘usi shakllanishi kerak, deb hisoblaydi: “Qachonki boshqa xalqni haqorat qilishsa va kamsitishsa, shu ayni damda har bir xalq uchun yoqimsiz bo‘lishi kerak; xalqlarda asta-sekin birdamlik hissi uyg‘onishi kerak, buning uchun har biri o‘zini boshqa birovi o‘rniga qo‘yishi kerak”[6:256]. Faylasufning fikricha, ma’lum bir xalq haqida ijtimoiy fikrda umumiy yalpi nafratni keltirib chiqaruvchi toifalar, aslida, o‘zi mansub bo‘lgan davlatning boshqa xalqni istilo qilish niyatini ifodalaydi: “Bo‘lmasa, birovning huquqlarini tortib oluvchi bezbet uzurpator, birovning farovonligiga qasd qiluvchi qo‘pol dilozor, birovlarning axloqi va odatlarini oyoqosti qiluvchi manman avantyurist, o‘zining foydasi uchun xalqlarga istalmagan narsalarni bog‘lovchilar umumiy nafratni keltirib chiqaradi”[6:256]. Faylasuf yuqoridagi hukmini quyidagicha ochiqalaydi: “Har qanday bahonalar bilan xohlagan urinishlar – chegaralarni buzish, qo‘shnisini qullikka duchor qilish, ularga o‘zining xudolarini tiqishtirish va uni milliy muqaddas qadamjolaridan mahrum qilish, ya’ni dini, san’ati va dastlabki turmush tarzidan mahrum qilish, har bir xalqda dushmani ko‘rish – u o‘ziga qarab aytadimi?: “Men bilan shular bo‘lganda nima bo‘lardi?”[6:256] Bu yerda to‘rtta muqaddas milliy tushunchaga rahna qilinsa, dushmanlik yuzaga kelishi sharhlandi: chegaralarni buzish, qo‘shnisini qullikka duchor qilish, o‘z e’tiqodini boshqa xalqqa singdirish, muqaddas qadamjolaridan mahrum qilish. Oxirgi iborada juda muhim hayotiy qonuniyat aks etganki, “muqaddas qadamjolar” iborasida I. Gerder mazlum xalqning dini, san’ati va dastlabki turmush tarzini buzishni unga urush e’lon qilish yoki istilo qilish bilan teng ko‘rgan. Aslida bu ham istilochilik siyosatining mohiyatini aks ettiradi va bunga qarshi kurashish uchun esa, olim nazdida, “ma’rifatli xalqlar ittifoqi” yuzaga kelishi kerak: “Bunday tuyg‘uning o‘sishi bilan xohlagan tajovuzkor davlatga qarshi barcha ma’rifatli xalqlar ittifoqi yuzaga keladi”[6:256]. Shuningdek, kabinetlar va saroylar kelishuviga I. Gerder ishonchsizlik bildirgan va bunday paytlarda “xalqlarning ovozi” baralla yangrashi va siyosatga ta’sir etishi nazarda tutilgan:

“Aniqrog‘i, bunday tinchlik ittifoqiga Sen-Pyer tomonidan taklif etilgan hukumatlar va saroylarning rasmiy kelishuvidan ko‘ra, ma‘rifatli xalqlar ittifoqiga umid qilsa bo‘ladi. Ulardan birinchi qadamlarni kuta olmaysan, lekin ular oxir-oqibatda ong va irodaga qaramasdan, xalqlarning ovozigacha quloq solishga majbur bo‘ladilar”[6:256].

I. Gerderning oltinchi qat‘iy ishonchi, ya‘ni tinchlik qonuniyati “Savdo da‘volari to‘g‘risida”[6:256] deb ataladi. Faylasufning fikricha, “mazlum xalqlar foyda uchun qurbon qilinganda savdodagi surbetlik da‘volarida insoniylik hissi shunday baland yangradiki...”, deb qudratli davlatlarning mazlum qilingan xalqlar bilan savdo aloqalarini o‘rnatish rasmiyatchiligida o‘ta balandparvoz so‘zlar bitilishini, aslida esa bu uning aksini namoyon qilishini ko‘rsatadi. “Savdo, hattoki, eng oliyjanob sabablar bilan ado etilganda ham, odamlarni ajratishi emas, balki birlashtirishi kerak”[6:256], deb ta‘kidlaydi. I. Gerder “inson savdoning barcha oliyhimmat, pok ahamiyatini bolalik chog‘idayoq oxirigacha anglab yetmasa hamki, uning shubhasiz ravishda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushunish kerak”, deydi. Buning uchun esa “dengizlar bor, shamollar esadi, oqimlar suzadi”[6:256]. Shuningdek, I. Gerderning ushbu tinchlik qonuniyati bo‘yicha, bir xalq boshqa xalq uchun dengiz yo‘llarini yopishga, shamol kuchidan foydalanishni taqiqlashga va bunga qasd qilishga haqli emasdir va agarki shunday bo‘lsa, unda bu hodisa umuminsoniy norozilikni yuzaga keltirishi lozim: “Agar bir xalq boshqa xalq uchun dengiz yo‘lini yopishga qasd qilsa, shamol kuchidan foydalanishni taqiqlasa, bu xalqaro aloqalar ahamiyatini anglaydigan, tabiiy hodisalarning erkinligini qaram qilishga qarshi chiquvchi, umumiy manfaat o‘g‘rilariga qarshilik qiluvchi, tabiat xazinalari va boyliklarini beorlaricha egallaydiganlarga qarshi kurashadigan xalqlarning umumiy noroziligini keltirib chiqarishi kerak”[6:255–257]. I. Gerder davom etadi: “Uning mavqei uchun, uning ochko‘zligi uchun ixtiyoriy bir tomchi ham qon to‘kilmaydi, qachonki bir ajoyib inson tomonidan aytilgan quyidagi to‘g‘ri fikr umuminsoniy boylikka aylanmaguncha: “Savdo qiluvchi davlatlarning manfaatlari bundan so‘ng to‘qnashmasa, o‘zaro umuminsoniy farovonlik va uzluksiz tinchlikni saqlaydigan bu davlatlar ulug‘vor foydalar ola biladilar”.

I. Gerderning yettinchi qat‘iy ishonchi, ya‘ni tinchlik qonuniyati “faoliyat” deb nomlangan. Faylasuf ushbu o‘rinda insonlar va millatlarni shunchaki faoliyatga emas, balki hindular elati misolidagi “foydali faoliyat”ga da‘vat etadi: “Nihoyat, hindular “Tinchlik qizi”ga taqdim etilgan boshqoq – qilichga qarshi qudratli quroldir. Odamlar qanchalik foydali faoliyat mevasini ko‘paytirsalar va shunday ongda chuqurlashsalar, jangovor oybolta bilan hech narsa yaratib bo‘lmasligini, lekin ko‘p narsalarni buzish mumkinligini tushunib yetadilar; qanchalik tug‘ilgan urush kastasining ilohiylikka moyillik to‘g‘risidagi tezroq ayanchli va kulgili bo‘lgan sharmandali bid‘atlari, xuddi Qobul, Nemvrod, Og, Vasan qiroli qoni ularda oqadi, degan xurofotni tarqatishsa hamki, shunchalik ko‘p hurmat bilan boshqoqlar gulchambari, olma va palma novdalari ishlatiladiki, bu qayg‘uli dafnadan qiyosan yaxshiroqdirki, qaysiki oxirigisi zulmatdagi sarv bilan yonma-yon va qichitqi o‘t bilan, tikanli o‘simliklar bilan birga o‘sadiki, jarohat va yaralarni yuzaga keltiradi, xolos”[6:257].

Olimning ishonchi komilki, agarki millatlar va xalqlar o‘rtasida tinchlik qonuniyatlari keng yoyilsa va ular shunday faoliyatda bo‘lsa, ular “buyuk tinchlik xudosi”ni yaratadilar va uning rohatbaxsh zaytun moyi hamda shifobaxsh vositalaridan foydalanadilar va xalqlar orasidan tanlangan “Tinchlik qizi” so‘zini eshitadilar: “Asta-sekinlik bilan ushbu qonuniyatlarning keng yoyilishi – mana, o‘shal buyuk tinchlik xudosi aqlining maxsus rohatbaxsh zaytun moyi va shifobaxsh vositalaridirki, uning nutqiga oxir-oqibatda har kim quloq tutadi. Uning shifobaxsh vositalari bilinmay ta‘sir qiladi, maxsus rohatbaxsh zaytun moyidan oqib keladi, bir xalqdan boshqa bir xalqqa osoyishta o‘tib ketadi, hindularning so‘zlarini takrorlab o‘tadi: “Og‘a, nabera, ota – Men senga do‘stlik nishonini va shifobaxsh vositalarini keltiryapman. Men sening ko‘zlarini yuvaman, toki ular ziyrak ko‘rsinlar. Men sening qulog‘ingni yuvaman, toki ular yaxshi eshitsin. Men istaymanki, mening nutqim senga ma‘qul kelsin, axir men shunchaki kelganim yo‘q, men tinchlik so‘zini keltirdim”[6:257].

Faylasuf asarining oxirida umuminsoniy tinchlik qaror topish jarayonini shunday aks ettiradi va bu asar mohiyatining eng cho‘qqisidir: “Kimgaki u murojaat qilsa, unga shunday javob beradi: “Opa yoki singil, xush kelibsiz. Men sening oyoqlaringni tikanlardan tozalayman – ular yo‘l bo‘yi senga yopishdi, men senga orom olishga va kuch to‘plashga yordam beraman. Qonli oybolta va nayzani biz yerga ko‘mib tashlaymiz va bu joyda balandligi osmonga qadar o‘sadigan daraxt ekamiz. Toki quyosh va oy chiqarkan hamda botarkan va bizga nur taratar ekan, toki osmonda yulduzlar porlar ekan va toki suvlar yerga quyilar ekan – bizning do‘stligimiz bardavom bo‘lajak”[6:257].

**XULOSA.** I. Gerder bo‘yicha abadiy tinchlik holati quyidagilar bo‘lsa, amalga oshadi:

1. Bir makonda yashaydigan xalqlardan biri “Tinchlik qizi” bo‘lsa va ular xalqlarning birlashishini yuzaga keltirsa;
2. Monarxlar va vazirlar urush bilan tahdid va fitna qilmasa;
3. Bir makonda yashaydigan xalqlar savdo-sotiq aloqalarida aldov va fitna qo‘zg‘amasa;
4. Yuksak axloqiy g‘oyalar va tamoyillar xalqlar o‘rtasidagi aloqalarda ustunlik qilsa;
5. “Tinchlik qizi” bo‘lgan millatning so‘zlari boshqa xalqlar tomonidan eshitilsa va unga muvofiq qilinsa, shunga mos faoliyat yuritilsa hamda do‘stlik aloqalari o‘zaro qo‘shnichilikda mustahkamlansa.

Faylasufning o‘zi yer yuzida abadiy tinchlik mumkinmi, degan savolga unchalik ham ishonmagan, lekin bu yo‘lda qilingan sa‘y-harakatlarning barchasini “foydali faoliyat” deb hisoblab, ushbu harakatlarning hech biri bekorga va izsiz ketmaydi, deb bilgan: “Agarki, menga kelsak, men deyarli aminmanki, rasman abadiy tinchlik Qiyomat kuni tuzilishi mumkin, lekin shunga qaramay bitta ham qonuniyat, maxsus rohatbaxsh zaytun moyining hech bir tomchisi, agarki u ancha qadimgi zamonlarda tayyorlangan bo‘lsa hamki, havoga uchib ketmaydi”[6:258].

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Иоганн Гердер. Историзм XXI век // Вестник Омского университета. — 2025. — № 2 (30). — С. 56–68.
2. Гердер И. Г. Идеи к философии истории человечества. — М.: Наука, 1977. — 703 с.
3. Григорьева Л. И. «Идеи к философии истории человечества» И. Г. Гердера для современного культуролога // Ученые записки Таврического национального университета им. В. И. Вернадского. Серия: Философия. Культурология. Политология. Социология. — 2014. — Т. 27 (66), № 1. — С. 42–49.
4. Трактаты о вечном мире / сост. И. С. Андреева, А. В. Гулыга. — СПб.: Алетейя, 2003. — С. 250–258.
5. Гердер И. Г. Письма для поощрения гуманности (1793–1797) // Трактаты о вечном мире / сост. И. С. Андреева, А. В. Гулыга. — СПб.: Алетейя, 2003. — С. 250.